



ISLOM HUQUQINING ASOSIY MANBALARI VA FIQHIY ASARLAR

Avazova Shoira Tuxtamratovna

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro islom akademiyasi “Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi

Ushbu maqolada yoshlarni turli yot oqimlarning ta’siriga tushib qolishlarini oldini olish maqsadida ularga islom dinining haqiqiy mohiyatini o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan, shuningdek, Islom huquqining asosiy manbalari hisoblangan, Qur’oni karim, sunna, ijmo va qiyosning mohiyati ochib berilgan, islom huquqining furu’ul fiqh sohasiga bag‘ishlab yozilgan asarlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy manba, fiqh, Qur’oni karim, sunna, ijmo, qiyos, faqih, mujtahid, vakolat.

Azaliy qadriyatlarimiz va ahloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom - haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi [1, 30-b].

Bugungi tezlik bilan o‘zgarib borayotgan globallashtirish davrida muqaddas islom dinining mohiyatini noto‘g‘ri talqin qilish, ularni soxtalashtirish yo‘li bilan turli fitna va buzg‘unchiliklar sodir etish holatlari kuzatilib turibdi. “Islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi”. Bunday vaziyatda dinimizning sofligini saqlash, uning tinchlik va insonparvarlikdan iborat asl mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, xalqimizning boy diniy va ma’naviy merosini o‘rganish borasida izlanishlar olib borish va targ‘ib etish, shu yo‘l orqali yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston hududida islom dini tarqalib, bu yerdagi tub aholi e’tiqod qiluvchi yagona dinga aylanganidan chor Rossiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar huquqiy munosabatlar islom huquqi normalari bilan tartibga solingan. Shu sababli islom huquqining alohida huquqiy tizim sifatidagi mohiyati, uning manbalari, rivojlanish bosqichlarini mukammal o‘rganmay turib, O‘zbekiston davlatining huquq tarixini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Islom jahon dinlaridan biri sifatida asrlar davomida ko‘pgina xalqlar ma’naviy dunyoqarashining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo‘lib kelganligining o‘ziyoq u inson tabiatida chuqur iz qoldirganligidan, uning o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi.

Islom dinining o‘ziga xosligi shundaki u bir vaqtning o‘zida ham diniy, ham dunyoviy qudratni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, yagona kitob imon e’tiqodni, odatlar va hatto huquqni ham belgilab bergan, shuningdek, yaratuvchining qat’iy irodasi ham yagona kitobda ifodalangan. Islom





dini nafaqat e'tiqod sifatida balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'z ifodasini topgan, jumladan, jamiyatdagi turli xil munosabatlarni tartibga solib turgan mustaqil huquqiy madaniyatdir. Bu huquqiy madaniyat insoniyat rivojlanishining ulkan yutuqlaridan biri bo'lib, jahon huquqiy xaritasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shariat ilmlaridan biri bo'lgan - fiqh ilmi o'z mohiyatiga ko'ra keng ma'noda islom huquqidir.

Manbalarda ta'riflanishicha, «fiqh ilmi jamiyat a'zosi bo'lmoq sifatida insonning o'z huquq va vazifalarini tamomila bilishdir» [2, 3-b]. Bu yerda jamiyat deyilganda oila, shahar, yoki davlat nazarda tutilgan. Demak, ushbu ta'rifga ko'ra insonning oilada nikoh va oila huquqiga oid, fuqarolik ishlariga tegishli, shuningdek, ma'muriy huquqiy munosabatlarni chuqur bilishi fiqh ilmining asosini tashkil qiladi, deyishimiz mumkin. «Agar bir kimsa bu ilmda mahorat va tajribaga ega bo'lsa va nikoh, taloq, savdo, ijara, hadya va boshqa munosabatlarga doir bilimlarga ega bo'lsa, u kishi faqih deb atalgan» [4, 4-b]. «Faqih», ya'ni fiqh olimi bo'lmoq uchun faqatgina shariat hukmlarini sodda va yuzaki bilib, yod olish yetarli emas, balki ushbu hukmlarning butun sabab va hikmatlarini bilmoq va shariat asoslarini anglamoq zarurdir. Shuning uchun shariat hukmlarini sodda uslubda bilgan kishi olim deyilsa ham, faqih deyilmaydi. Fiqhshunos olimlarning ta'kidlashicha, ilm va fiqh orasida har kim anglamaydigan farq bor. Ya'ni ilm umumiy ma'noda, fiqh esa xos ma'noda ishlatiladi. Shu sababli har bir faqih olim bo'ladi, ammo har bir olim faqih emasdir [9]. Yana fiqhiy kitoblarda imom Abu Hanifadan naql qilinishicha, «fiqh ilmi - kishining o'z foydasi va zarariga bo'lgan narsalarni bilishdir» deyiladi[9]. Bu ta'rifga ko'ra fiqh ilmining doirasi g'oyat kengdir. Fiqh ilmi bir bepoyon dengiz bo'lganidan Qur'oni karimdagi «Ularning har bir firqasidan bir guruh kishi ularga qaytib borishganda dinni yaxshi tushunib, qavmlarini ogoh qilsinlar» oyati karimaga ko'ra fiqhni o'rganish buyruq shaklida kelib, fiqh ilmini birdaniga va juda oson o'rganilishi mumkin bo'lmay, faqat ma'lum muhlatda bosqichma-bosqich, birma-bir o'rganish zarurligi va bunga katta sa'y-harakat bilan erishish mumkinligi, shuningdek mazkur fanning tahsili mashaqqat va zaxmatni ixtiyor etmoqlikdan iborat ekanligiga ishora qilingan [9].

Ma'lumki, islom huquqining birinchi manbasi Qur'oni Karim hisoblanadi. U diniy qonuniy majmua sifatida insoniyatning ulkan qismi taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadi [5, 15-b]. Qur'onda huquqiy tizim aks ettirilgan bo'lib, u diniy va huquqiy masalalarni o'zaro chambarchas bog'lagan keng qamrovli muqaddas, ilohiy kitobdir.

Ikkinchi manba sunnat, ya'ni Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va taqriqlaridir.

Uchinchi manba ijmo' bo'lib, u bir davrda yashab ijthod darajasiga yetgan ulamolarning bir ovozdan biror masalani qabul qilishlariga aytiladi.

To'rtinchi manba qiyos deb atalib, hukmi vorid bo'lmagan masalani Qur'on va Hadisda shu masalaga o'xshash bo'lgan va hukmi kelgan narsaga qiyoslab hukm chiqarishdir. «Masalan, mujtahiddan biror ishning shar'iy hukmini so'ralsa, u avval Qur'oni karimdan javob axtaradi, topsa, unga binoan hukm qiladi. Agar topmasa, undan so'ng sunnati nabaviyaga murojaat qiladi, javobi topilsa, demak, sunnatga suyanib hukm chiqaradi. Agar undan ham topilmasa, so'ralgan ish hukmiga Payg'ambar alayhissalom vafotlaridan so'ng mujtahidlar aynan o'sha so'ralgan ish yuzasidan yakdil fikrga kelgan bo'lsalar, o'sha javob ila hukm chiqaradi. Agar bunday ijmo' bo'lmagan bo'lsa, mujtahid u ishning shar'iy hukmini chiqarish uchun qiyos yo'li ila – mazkur ishga o'xshash ishlar yuzasidan shariatda berilgan javoblarga ilmiy asosda yondashib, har tomonlama mulohaza qilib taqqoslab, o'zining bor ilmini sarflab javob topadi. Mazkur to'rtta asosiy manbaning haqqoniyligiga hamda shu tartibda kelishiga Qur'oni karimning Niso surasi, 59-oyati dalildir: ya'ni, «Ey mo'minlar,





Allohga itoat qilinglar va payg'ambarga itoat qilinglar hamda o'z'laringizdan (ya'ni musulmonlardan) chiqqan boshliqlarga itoat qilinglar. Agar biror masala javobida bir fikrga kelisha olmasalaringiz, u holda o'sha masalani Allohga va uning rasuliga qaytaringlar. Agar Allohga va qiyomat kuniga iymonlaringiz bo'lsa, shunday qilishlik eng yaxshi va xayrli ma'no berishdir". Ushbu oyati karimada "Allohga itoat qilish"dan Qur'onga ergashish tushunilishi lozim. Rasulga itoat qilish deganda sunnatga ergashish; o'z'laringizdan chiqqan ish boshlovchilaringizga (ulul amrga) itoat qilinglar, deyilganida, ulamolarga ergashish anglashiladi. Ulul amrni hazrati Abbos ulamolarga tafsir qilganlar. Ammo bir fikrga kelisha olmagan masalani Allohga va uning rasuli aytgan hukmlarga solishtirish, ya'ni, qiyos qilish demakdir" [6, 13-b].

Fiqh ilmi islom dini vujudga kelishi bilan birga paydo bo'lmay, balki X asrga kelib, to'liq shakllandi. VII-IX asrning birinchi yarmida fiqhning uslubiyoti shakllana boshladi. Bu davrda uning ikki maktabi vujudga keldi: ulardan biri «ahli hadis», ya'ni hadis va oyatlarga ko'proq e'tibor beruvchilar va «ahli ra'y», ya'ni hadis va oyatlardan tashqari ra'y va qiyos orqali hukm chiqaruvchilarning maktabi edi.

«Ahli ra'y» tarafdorlari asosan Iroqda bo'lib, uning asoschisi Abu Hanifa hisoblanadi. 669-767 yillarda yashagan Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit islom huquqshunosligi tarixida misli ko'rilmagan buyuk shaxs edi. U tengi yo'q faqih, Islom ulamolari orasida eng yetuk olimlardan edi [7, 21-b]. Imom Abu Hanifa asos solgan hanafiy mazhabi Kufa shahri – Iroq diyori markazida yuzaga kelib, oz muddat ichida islom dunyosining ko'p mamlakatlarida tarqalib rivojlandi va musulmonlarning katta qismini o'ziga jalb etib, ahli sunna val jamoaning eng katta va keng yoyilgan mazhabiga aylandi [8, 151-b]. Abu Hanifaning eng buyuk shogirdlari Imom Abu Yusuf va Imom Muxammad Ibn Hasan ash-Shayboniyar bo'lgan. Ularning yozgan asarlari va faoliyatlari natijasida hanafiylik keng yoyildi.

Imom Abu Yusuf (113-182 h.y.) Abu Hanifaning atoqli shogirdi, buyuk faqih va mujtahid, Abbosiylar davlatining qoziul-quzzoti edi [8, 156-b]. Uning mashhur asarlari quyidagilardir: «Kitob ul-xiroj», «Kitob ul-osor», «ar Raddu alo Siyaril Avzo'iy» va «Abu Hanifa va Ibn Abi Laylo orasidagi ixtiloflar» [8, 161-b].

Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy Abu Hanifaning ikkinchi atoqli va ilg'or shogirdi edi. Uning muhim asarlari «al-Usul» yoki «Zohirur-rivoya» deb atalgan oltita fiqhiy asar bo'lib, quyidagilardan iborat: «al-Mabsut», «az-Ziyodot», «al-Jomi' as-sag'iy», «al-Jomi' alkabiy», «as-Siyarus sag'iy», «as-Siyarul kabiy». «Zohirur-rivoya» kitoblarini al-Hokimush shahid «al-Kofiy» nomli kitobida to'pladi [8, 162-163 b]. Bu to'plamga XI asrda Muhammad ibn Ahmad as-Saraxsiy 30 jildda sharh yozgan. Keyinchalik bu asar «Majalla»ning asosini tashkil etgan [10, 11- b].

«Ahli hadis» tarafdorlaridan biri IX asrda yashagan Samarqandlik olim Abdulloh ibn Abdurahmon As-Samarqandiy ad-Dorimiy (798-869) edi. U o'zining "Sunan" asarida fiqh masalalarini o'ziga xos uslubda ochib berdi. U asarni fiqhiy boblarga ajratib, shu boblarni nomlashda (ularning mazmuniga) fiqhiy masalalar va hukmlarni kiritgan. Asarda Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning 3503 ta hadisi shariflari jami 1306 bobda, Muqaddima hamda 23 kitobda keltiriladi. "Sunan"ning boshqa fiqhiy asarlardan farqi shundaki, muallif unda faqat fiqhiy masalalarga oid hadislarnigina to'plab, ularni sharhlaymay o'z ijtihodiy fikrlarini berish bilan kifoyalangan [11].

Fiqh ilmi ikki asosiy qismga usulul-fiqh va furu'ul-fiqhga bo'linadi. Usulul-fiqh bu asosiy manbalardan hukmlarni chiqarib olish yo'llarini belgilab beruvchi qoidalarni bilib olishdir. Furu'ul-fiqh esa usulul-fiqhda belgilab berilgan qoida va usullar orqali asosiy manbalardan chiqarib olingan far'iy hukmlar majmuasi bo'lib, fiqh ilmining tarmoqlari yoki sohalarini tashkil etadi [8, 53-b]. Manbalarga ko'ra, fiqhning tarmoqlari quyidagilardir:





1. Munakahot, ya'ni oila a'zosi sifatida insonning huquq va vazifalarga ega bo'lishi hisoblanib, bunga nikoh, taloq, razo, nafaqa, meros va vasiyat masalalari kiradi.
2. Muomalot, shahar, yo davlatning a'zosi sifatidagi huquq va vazifalarni bilish bo'lib, boy' (savdo), ijara, kafolat, havola, omonat, hadya, shirkat kabi masalalarni o'z ichiga oladi.
3. Uqubot qismi muomalot va munakahot qonunlarini amalga oshirish va ularning buzilishini oldini olish maqsadida yo'lga qo'yilgan qonunlar [4, 5-b].

Birinchi bo'lib, furu'ul-fiqh Muhammad ibn Shayboniyning «alMabsut» asarida tilga olingan. Uni «al-Asl», ya'ni asosiy kitob deb ham ataganlar. Ushbu asar katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli, uning uslubidan foydalanib, O'rta Osiyolik ko'p faqihlar ushbu nom bilan ko'p jildli kitoblar yozganlar [8, 163-b]. Jumladan, Saraxsiyning «al-Mabsut» asari. Saraxsiy Movaraunnahrning usul va furu'ni egallagan buyuk olimlaridan hisoblanadi [8, 256-b]. Uning 15 jildda yozilgan «al-Mabsut» kitobi furu'ul fiqh bo'yicha yozilgan muhim asardir. Bu asar 2001 yil Bayrutda 30 ta kitob (15- jild) tartibida yozilgan bo'lib, fuqarolik ishlariga oid masalalar turli kitoblarda aks etgan. Masalan, savdo--sotiq masalalari 12-kitobda, hadya, ijara masalalari 14-kitobda, kafolat, vakolat kitoblari 19-kitobda, garov, shirkatlarga oid masalalar 21-kitobda, g'asb kitobi 22-kitobda o'z ifodasini topgan. Kitoblarda biror masala yoritilar ekan, dastlab o'sha sohaga tegishli so'zlarning lug'aviy tarjimasini, mazmuni tushuntiriladi. So'ngra uning shar'iy ekanligiga Qur'oni karim va hadislardan dalillar keltiradi. Masalan, 10-jild, 19kitobda keltirilgan «Vakolat kitobi»da ta'riflanishicha «Vakolat - bu boshqasiga tasarruf huquqini topshirish va biron bir molni birovga uni tasarruf qilish uchun berishdir. Bunday shartnomaga kishilar ko'pincha muhtoj bo'ladilar, masalan, safarga chiqqanda kishilar o'zining molini muhofaza qilishdan o'z qoladi, hamda molning ko'pligi, o'zining u mollardan uzoqligi va u mollar bilan mashg'ul bo'lmagani uchun boshqa kishiga vakolat bilan topshirishga majbur bo'ladi» [12, 4-b] deyiladi. Keyin esa ushbu shartnomaning qonuniy ekanligiga dalil sifatida quyidagi oyatlar keltiriladi: Kahf surasining 19-oyatida «Endi birontangizni shu pulingiz bilan shaharga jo'natingiz» deyilib, unga ko'ra biror shaxsga pul berilib, ma'lum bir narsani sotib olish uchun unga vakolat berilganligiga ishora qilinganligi nazarda tutilgan. Baqara surasining 220-oyatida «Sizdan yetimlar (haqlari) to'g'risida so'raydilar. Ayting: «Ularni isloh qilish yaxshidir. Agar (mollaringizga) ularning mollarini qo'shib yuborsalaringiz (zarari yo'q), zero, ular (bamisoli) o'z birodarlaringizdir. Alloh buzg'unchi bilan isloh etuvchini (farqini) biladi» deyiladi, shuningdek, An'om surasining 152-oyatida «To voyaga yetmaguncha yetimning moliga yaqinlashmangiz, magar chiroyli yo'l bilan (bo'lsa durust). O'lchov va tarozini adolat bilan to'la ado etingiz» deyilib, vakolat kitobida ushbu oyatlar sharhlanib, ular yetimlarning mollarini tasarruf etish yuzasidan vakolat olishga dalil sifatida keltiriladi, ular orqali vakolatning bunday turi qanday tartibga solinishi batafsil ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari vakolatning shar'iy ekanligiga hadislardan ham dalillar keltirilganidan so'ng, vakolatga oid huquqiy munosabatlar islom huquqida qanday tartibga solinishi bayon qilinadi.

XII asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan faqih Alouddin asSamarqandiyning «Tuhfat al-fuqaho» nomli asari ham furu'ul-fiqh bo'yicha yozilgan asarlardan biridir. Alouddin as-Samarqandiy o'zining ushbu asarida fiqhiy masalalarni hal qilishda o'ziga xos yo'l tutadi, ya'ni avvalgi davr va zamondosh faqihlarning fatvolarini to'plamlarga jamlab, bu yo'nalishda birinchilardan bo'lib ijod qiladi. Muallif o'sha davr an'anasiga binoan fiqhiy masalalarni yechishda avval ibodat, so'ngra muomalot qismlariga tegishlilarini ko'rsatadi. Asarda Alouddin Samarqandiy har bir masalani yechishda manbalarda mavjud fikr va dalillar bilan hanafiya nazariyalarini qiyoslaydi. Ixtilofli masalani hanafiylik nuqtai nazaridan hal etadi, biror masalani yechishda oyat, hadislardan dalil keltirilgach, mazhab sohiblari bo'lgan mujtahidlarning fikr va dalillari bayon etiladi. «Tuhfat al-





fuqaho» asari mazmuniga ko'ra, asosan faqihlar, qozilar, mudarrislar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. U huquqshunoslik sohasi va jamiyatdagi mavjud muammo va masalalarga bag'ishlangan. Bu asar XII asrning ikkinchi yarmida yozilgan Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asariga uslub jihatidan asos bo'lgan.

Buyuk Vatandoshimiz Burhoniddin Marg'inoniy (1123-1197)ning «Hidoya» asari ham furu'ul-fiqh bo'yicha yozilgan muhim asardir. Marg'inoniyning o'lmas merosi, xususan "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" deb atalgan kitobi, asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelinmoqda. «Bu asar sunniylik oqimida hanafiy mazhabi bo'yicha eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan bo'lib, meros huquqidan tashqari, furu'ul-fiqhning barcha sohalarini qamrab olgan. Burhoniddin Marg'inoniy meros huquqini kirgizmaganining sababi shundaki, imom A'zam Abu Hanifa meros muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni «faroiz ilmi» deb ham ataganlar» [13, 24- b].

"Hidoya" kitobini yozishda Burhoniddin Marg'inoniy oldida unga qadar turli mualliflar tomonidan yozilgan yuzlab huquqiy majmualar va fatvolarni o'rganish va ular asosida mavjud huquqiy muammolarning javobini topishdek mushkul vazifa turgan. Ularda minglab masalalar, ayrim muayyan aniq muammolar bo'yicha o'nlab fikru mulohazalar, hatto bir-biriga qarama-qarshi turgan nazariyalar mavjud bo'lgan. Ulardan eng hayotiy va zaruriy rivoyatlarni tanlab olib, ularning to'g'riligini aqliy dalillar bilan isbotlab, naqliy dalillar bilan mustahkamlashda, klassik asarlar matni va mazmuniga chuqur kirib borib, ularning huquqiy asarlarini belgilab olgan [13, 17- b].

Burhoniddin Marg'inoniy "Hidoya" kitobini yozishda o'ziga xos qaytarilmas uslub yaratgan. "Hidoya" kitobida huquqiy masalalarning yechimi dastlab fiqh ilmining yirik olimlari bayoni va unga boshqa mualliflar e'tirozlari yoki qo'shilishlarini izhor etish yo'li bilan berilgan. Ana shu obro'li faqihlar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan huquqiy masalalarda eng ma'qul yo'lni tanlab olish yo'liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi asoslab keltirilgan [13, 20- b].

"Hidoya" asari hanafiy mazhabi ta'limotini, Sharq huquqiy madaniyatini va fiqh ilmi tarixini o'rganishda eng ishonchli manba hisoblanadi.

XVI asrga kelib Hindistonda Avrangzeb Olamgirlingarning buyrug'i bilan o'z davrining yirik faqihlari hanafiy qonunchiligidagi turli masalalar bo'yicha qonunlarni to'plam holatiga keltirish maqsadida chaqirilgan edilar. Ular «Fatavoyi Olamgiriyy» yoki "Fatavoyi hindiya" asarni qoldirganlar. Avrangzebning maxsus hidoyati va buyrug'iga binoan arab tilida yozilgan, "Al-Fatovo al-Hindiya" nomi bilan shuhrat qozongan ushbu manba boburiylar davrining mashhur 24 ta faqihlaridan tashkil topgan bir ilmiy hay'at ishtirokida yozilib, unda fiqhiy hukmlar klassik uslubda tartibga solingan. "Fatavoyi Olamgiriyy" to'rt jilddan iborat bo'lib, uch yarim ming betni o'z ichiga oladi. U eng muhim va mo'tabar fiqhiy asarlar va fatovolar asosida yozilib hukmlarni tanlashda zamon talabi va davr taqozosi nazarda tutilgan. U islom huquqining barcha sohalarini qamrab olib, Abu Hanifa tomonidan "al-Faroiz" deb atalib, mustaqil fan sifatida ajratilgan meros masalalari ham to'rtinchi jildning oxirida "Kitob-ul faroiz" sarlavhasi ostida mufassal suratda berilgan. Fatovo 58 kitobdan iborat bo'lib, har kitob turli boblar va fasllarga bo'lingan. Boblar soni 700 taga yetib boradi. Har bobda bir muayyan sohaga tegishli bo'lgan huquqiy muammolar yechimi ko'rsatilgan. Asarning o'ziga xos bir xususiyati shundan iboratki, Hindiston musulmon jamoasining hayotiy zarurat va talablaridan kelib chiqqan holda turli sohalarda amaliy hayotga katta e'tibor qaratilgan [3]. Ba'zi olimlar tomonidan





ushbu asar “Boburiylar davlatining huquqiy kodeksi” deb ta’riflangan. Lekin bu shartli ravishda bo‘lib, Yevropacha uslub bo‘yicha kodifikatsiyalashtirilgan manba hisoblanmaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Islom huquqining asosiy manbalari asosida vujudga kelgan islom huquqi normalari qotib qolgan va o‘zgarmas qoidalardan iborat emas, balki asrlar davomida o‘z davriga mos ravishda rivojlanib borgan, o‘ziga xos xususiyatlari bilan turli davrlarda zamon talabidan kelib chiqadigan muammolarga javob berish qobiliyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Begiev M.J. Qavoidi fiqhiya. - Qozon: O‘rnak, 1907. - 231 b.
3. Jo‘zjoniy A.Sh. Avrangzeb va Boburiylar davlatining huquqiy kodeksi // Demokratiya va inson huquqlari. – Toshkent, 1999. – №1. – B.55.
4. Sulaymon Xasbiy Afandi. Tafsil. - Istanbul: Matbai Usmoniya, 1897. - 330 b.
5. Остроумов Н.П. Исламоведение. 3. Коранъ. - Т. 1912. - 355 с.
6. Abdulvahob Xalof. Usulul fiqh. (Islom qonunshunosligi asoslari). – T.: Adolat, 1997. – 220 b.
7. Qodirov Z. Imom A’zam. Hayot yo‘li va fiqh usullari. - T.: Movaraunnahr, 1999. - 112 b.
8. Jo‘zjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. - T.: Toshkent islom universiteti, 2002. - 256 b.
9. Jo‘zjoniy A.Sh. Buxorolik buyuk faqih – Abu Zayd Dabusiy. – T.: Toshkent islom universiteti, 2007. – B.7-8
10. Husniddinov Z. Islom: yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. - T.: Movaraunnahr, 2000, - 151 b.
11. Alimova M. Samarqandda hadis ilmining rivoji // Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlangan Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 95.
12. Saraxsiy. Al-Mabsut. 15 tomlik. - Bayrut: Dar al-kitob al-ilmiya, 2001. T.10. - 350 b.
13. Burhoniddin Al-Marg‘inoniy. Hidoya. - T.: Adolat, 2001. T.1. - 848 b.
14. Qaxharova, M., & Raximshikova, M. (2023). ПРОБЛЕМА ВОСПИТАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ СОЗНАНИЯ И МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ. *Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 169-174.

